

TOSHKENT YARMARKALARINI XORIJLIK OLIMLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI

Rajabov V.M

ipak yo'li innovatsiyalar universiteti tarix fani o'qituvchisi.

Anotatsiya; *Ushbu maqola orqali Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Toshkent shahrining savdo markazlari, xususan, Toshkent yarmarkalarining faoliyatining xorijlik olimlar tomonidan o'rganilishi va ular tomonidan tadqiqot etilishi va bergan asosli xulosalarini o'rganib chiqishga harakat qilindi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo shaharlari, Adeeb Khalid, Jeff Sahadeo, Paolo Sartori, savdo yo'llari, iqtisodiy aloqalar, Scott Levi, Alexander Morrison, Robert Crews, Turkiston iqtisodiyoti, paxta siyosati, Beatrice Penati, bozor munosabatlari, tashqi savdo,*

STUDY OF FAIRS IN TASHKENT BY FOREIGN SCIENTISTS

Rajabov V.M.

Teacher of History of the Silk Road Innovation Universe

Annotation; *Through this article, it was tried to study the activities of the shopping centers of Tashkent, in particular the Tashkent fairs, which were established by the Turkestan Governorate established by the Russian Empire, by foreign scientists and their research and reasoned conclusions.*

Keywords: *Central Asian cities, Adeeb Khalid, Jeff Sahadeo, Paolo Sartori, trade routes, economic relations, Scott Levy, Alexander Morrison, Robert Crews, Turkestan economy, cotton policy, Beatrice Penati, market relations, foreign trade.*

ИЗУЧЕНИЕ ЯРМАРОК В ТАШКЕНТЕ ЗАРУБЕЖНЫМИ УЧЁНЫМИ

Раджабов В.М.

преподаватель истории Вселенной инноваций Шёлкового пути

Аннотация; *В рамках этой статьи было проведено исследование деятельности торговых центров Ташкента, в частности ташкентских ярмарок, учреждённых Туркестанской губернией, учреждённой Российской империей, иностранных учёных, а также их исследований и обоснованных выводов.*

Ключевые слова: *города Центральной Азии, Адиб Халид, Джефф Сахадео, Паоло Сартори, торговые маршруты, экономические отношения, Скотт Леви, Александр Моррисон, Роберт Крюс, экономика Туркестана, хлопковая политика, Беатрис Пенати, рыночные отношения, внешняя торговля,*

Turkiston shaharlari tarixi va jamiyat transformatsiyasi masalalarini o'rganishda xorijiy tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular mazkur muammoni keng tarixiy va nazariy kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi davrida Markaziy Osiyo shaharlarida kechgan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda amerikalik tarixchi Adeeb Khalid ishlari muhim o'rin tutadi[1]. U o'z tadqiqotlarida modernizatsiya jarayonlari, shahar jamiyatining transformatsiyasi va yangi ijtimoiy qatlamlarning shakllanishini tahlil qilib, Turkiston shaharlari tarixi uchun muhim nazariy yondashuvlarni ilgari suradi.

Mazkur masalani aniq shahar misolida chuqur o'rganagan tadqiqotchilardan biri Jeff Sahadeo hisoblanadi. Uning ishlarida Toshkent shahri misolida kolonial shahar muhiti, aholi tarkibi, ma'muriy boshqaruv va shahar iqtisodiyoti masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan[2]. Muallif shahar makonining qayta shakllanishi va iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlarni shahar aholisi tarkibi va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi, bu esa Toshkent iqtisodiy hayotini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Turkiston shaharlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni huquqiy va institutsional nuqtayi nazardan tahlil qilishda Paolo Sartori ishlari alohida ahamiyat kasb etadi [3]. U arxiv materiallari asosida shahar jamiyati, huquqiy amaliyot va iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib beradi. Bu tadqiqotlar shahar iqtisodiyotini faqat savdo jarayoni sifatida emas, balki institutsional munosabatlar tizimi doirasida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda savdo yo'llari va iqtisodiy aloqalar tarixini o'rganishda Scott Levi ishlari muhim manba hisoblanadi [4]. Muallif mintaqalararo savdo aloqalari, tovar harakati va iqtisodiy makon shakllanishini tahlil qilib, shaharlar va yarmarkalarning savdo tizimidagi o'rnini keng tarixiy kontekstda yoritadi. Bu yondashuv yarmarkalar faoliyatini umumiy iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi.

Rossiya imperiyasi davrida Turkiston jamiyati va davlat siyosatini o'rganishda Robert Crews ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda imperiya siyosati, jamiyat va iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlil qilingan [5]. Bu tadqiqotlar shahar iqtisodiyotini siyosiy va ma'muriy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shahar boshqaruvi va ma'muriy tizim tarixini tadqiq etgan Alexander Morrison ishlari Samarqand va boshqa Turkiston shaharlaridagi boshqaruv tizimi, iqtisodiy

siyosat va shahar hayoti arxiv materiallari asosida tahlil qilingan [6]. Muallif shahar iqtisodiyoti rivojida ma'muriy islohotlar va transport infratuzilmasining ahamiyatini ko'rsatadi.

Turkiston iqtisodiyoti va paxta siyosati masalalarini o'rganishda Beatrice Penati ishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda mintaqqa iqtisodiy tizimining xususiyatlari, bozor munosabatlari va tashqi savdo omillarini tadqiq qilgan[7]. Bu tadqiqotlar shahar iqtisodiyotini global iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi.

Shu tariqa, xorijiy tadqiqotchilar ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkiston shaharlari tarixi, shahar muhiti va iqtisodiy munosabatlar masalalari turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Biroq mazkur tadqiqotlarda Toshkent yarmarkasining tashkiliy tuzilishi, savdo aylanmasi dinamikasi va shahar ijtimoiy hayotiga ta'siri alohida tadqiqot obyekti sifatida kompleks tarzda chuqur o'rganilmagan. Shu jihatdan mazkur mavzu ilmiy jihatdan dolzarb bo'lib qolmoqda.

Olib borilgan tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasi davrida Turkiston shaharlari iqtisodiyoti va savdo munosabatlari, jumladan yarmarka savdosi masalalari imperiya davri, sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Imperiya davri tadqiqotlarida yarmarkalar asosan iqtisodiy-geografik va statistik nuqtayi nazardan yoritilgan bo'lsa, sovet davri tarixshunosligida mazkur masala mustamlakachilik iqtisodiy siyosati va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi kontekstida tahlil qilingan. Mustaqillik davri tadqiqotlarida esa shahar iqtisodiyoti, urbanizatsiya jarayonlari va savdo infratuzilmasini kompleks o'rganishga e'tibor kuchaygan.

Xorijiy tadqiqotchilar ishlari Turkiston shaharlari tarixi, jamiyat transformatsiyasi va iqtisodiy munosabatlarni keng tarixiy va nazariy kontekstda tahlil qilish imkonini berib, mavzuni o'rganishning yangi ilmiy yondashuvlarini shakllantirgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent yarmarkasining tashkiliy tuzilishi, savdo aylanmasi dinamikasi, ishtirokchilar tarkibi, tovar strukturasi hamda shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga ta'siri masalalari kompleks tarzda maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois mazkur mavzuni arxiv manbalari, statistik ma'lumotlar va tarixiy adabiyotlar asosida tizimli o'rganish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi va ushbu tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni muayyan darajada to'ldirishga qaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosat tizimida muhim o'rin tuta boshladi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilishi natijasida mintaqada ma'muriy boshqaruv markazlashtirilib, iqtisodiy munosabatlarni qayta tashkil etish jarayoni boshlandi. Bu davrda Turkiston xom ashyo manbai va Rossiya sanoat mahsulotlari uchun bozor sifatida umumimperiyaviy iqtisodiy tizimga bosqichma-bosqich jalb etildi [5].

Mazkur jarayonda shahar savdo infratuzilmasi, ayniqsa yarmarkalar muhim iqtisodiy institut sifatida shakllandi. Toshkent yarmarkasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, mintaqalararo savdogarlar va Rossiya markaziy guberniyalari o'rtasidagi tovar ayirboshlashning asosiy mexanizmiga aylandi. Paxta, ipak, teri, qorako'l va boshqa mahsulotlar Rossiya sanoat markazlariga yetkazilgan bo'lsa, fabrika tovarlari Turkiston bozoriga kirib kelgan. XIX asr oxirida Toshkent ma'muriy markaz sifatida iqtisodiy markazga ham aylandi. Temiryo'l qurilishi yarmarka savdosining hududiy qamrovini kengaytirib, tovar aylanmasini tezlashtirdi. Natijada yarmarka faqat savdo maydoni emas, balki tovar taqsimoti, moliyaviy operatsiyalar va shahar budjeti daromadlarining muhim manbai sifatida faoliyat yuritdi. Shuningdek, u transport va ombor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Turkiston iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yarmarka instituti misolida kompleks tahlil qilish, arxiv va matbuot manbalarini qiyosiy o'rganish, hamda yarmarkaning shahar moliyasi va ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini qayta baholash zarurati bilan belgilanadi. Mazkur ish manbashunoslik va tarixiy-iqtisodiy tahlil usullari asosida Turkiston yarmarka savdosining iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy ahamiyatini kompleks yoritishga qaratilgan[4].

Mazkur tadqiqotning manbaviy bazasi mazmun va xususiyatiga ko'ra shartli ravishda bir nechta guruhlariga ajratib tahlil qilindi. Manbalarni tizimlashtirish ularning axborot qiymati, kelib chiqishi hamda ilmiy tahlil uchun ahamiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda foydalanilgan manbalarni to'rt asosiy toifaga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhni nashr etilgan hujjatlar va materiallar tashkil etadi. Bu turdagi manbalarga rasmiy to'plamlar, statistik ma'lumotlar, me'yoriy hujjatlar, ilmiy nashrlarda e'lon qilingan materiallar kiradi. Ular tadqiq etilayotgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini umumiy tarzda yoritish imkonini beradi.

Ikkinchi guruhni arxiv hujjatlari tashkil etadi. Arxiv materiallari tadqiqot uchun eng muhim manbalardan biri hisoblanib, ular orqali o'rganilayotgan davr voqealari, iqtisodiy munosabatlar, ma'muriy qarorlar va statistik ko'rsatkichlarni aniqlash imkoni paydo bo'ladi. Arxiv hujjatlari o'zining ishonchligi va bevosita davrga daxldorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi guruhni davriy matbuot materiallari tashkil etadi. Gazeta va jurnallarda e'lon qilingan maqolalar, xabarlar va tahliliy materiallar tadqiq etilayotgan davrdagi jamoatchilik fikri, iqtisodiy jarayonlar va kundalik hayotga oid ma'lumotlarni yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi guruhga esdaliklar va xotiralar kiradi. Memuarlar, sayohatnomalar va ishtirokchilarning xotiralari tadqiq etilayotgan davr voqealariga subyektiv qarashlarni aks ettirsa-da, ular davr muhitini, ijtimoiy munosabatlarni va hayot tarzini tasvirlashda qimmatli ma'lumot manbai hisoblanadi.

Turkiston o'lkasi iqtisodiy hayoti va savdo munosabatlarini o'rganishda senatorlik taftishlari materiallari muhim manbaviy ahamiyatga ega. Xususan, senator F.K. Girs rahbarligida o'tkazilgan taftish hisobotida o'lka shaharlari iqtisodiy faoliyati tahlil qilinib, savdo munosabatlari va bozor infratuzilmasi mahalliy aholi turmushida hamda mintaqalararo iqtisodiy aloqalarda muhim o'rin tutgani ta'kidlangan. Hisobotda shahar bozorlari va mavsumiy savdo yig'ilishlari, jumladan yarmarkalar mahalliy mahsulotlarni sotish va tashqi bozorlarga chiqarishning muhim shakllaridan biri sifatida qayd etilgan. Girs taftishi materiallarida, shuningdek, Turkiston o'lkasida savdo aylanmasining asosiy qismini qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan paxta, teri, ipak va chorva mahsulotlari tashkil etgani ko'rsatiladi. Bu mahsulotlar shahar bozorlari va yarmarkalar orqali ichki va tashqi bozorlarga chiqarilgani qayd qilinib, savdo infratuzilmasining iqtisodiy munosabatlardagi o'rni alohida ta'kidlangan[3].

Turkiston o'lkasini boshqarish tizimi va iqtisodiy munosabatlarini o'rganishda graf K.K. Palen rahbarligida 1908 yilda o'tkazilgan senatorlik taftishi hisoboti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hisobotda shaharlar iqtisodiyoti tahlil qilinib, yarmarkalar mahalliy bozorlar va mintaqalararo savdo o'rtasida vositachi vazifasini bajargani, ayniqsa Toshkent shahrida savdo aylanmasi yuqori darajada bo'lgan[3]. Palen hisobotida Turkiston shaharlaridagi savdo munosabatlari Rossiya sanoat mahsulotlari va mahalliy xom ashyo mahsulotlari ayirboshlanishi bilan bog'liq holda ko'rib chiqilib, yarmarkalar mazkur iqtisodiy aloqalarni ta'minlovchi muhim markazlardan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, hisobotda savdo operatsiyalarini tartibga solish, soliq yig'imi va ma'muriy nazorat masalalariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, bu holat yarmarka savdosining davlat moliya tizimi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatgan¹. Senatorlik taftishlari materiallari Turkiston o'lkasi shaharlari iqtisodiy hayoti, savdo infratuzilmasi va yarmarkalar faoliyatini o'rganishda muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur manbalarda keltirilgan ma'lumotlar Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati, savdo munosabatlarining rivojlanish xususiyatlari va shahar iqtisodiyotida yarmarkalarning tutgan o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Ithaca: Cornell University Press, 2015.
2. Sahadeo J. Russian Colonial Society in Tashkent, 1865–1923. – Bloomington: Indiana University Press, 2007.
3. Sartori P. Visions of Justice: Sharī'a and Cultural Change in Russian Central Asia. – Leiden: Brill, 2016.

4 Levi S. The Rise and Fall of Khoqand Khanate. – Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2017.

5.Crews R. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. – Cambridge: Harvard University Press, 2006.

6.Morrison A. Russian Rule in Samarkand 1868–1910. – Oxford: Oxford University Press, 2008.

7.Penati B. Cotton, Colonialism and Social History in Central Asia. – Florence: Firenze University Press, 2010.

